



YOSH AVLOD TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Karshiyeva Dilbar Eshpulatovna

CHDPU Pedagogika fakulteti

"Umumiy pedagogika" kafedrası v.b dotsenti (PhD).

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil Jurnal soni: 16-B Maqola raqami: 17 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1302 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Urf-odat, ma'naviy boylik, aqli, iymon-e'tiqodli, ro'za, poklik, fidoyi, ishchan, milliy, kamolot.	Ushbu maqolada barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid dalillar va ularning nazariy asoslarini keltirgan. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhim ekanligi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda milliy qadriyatlarining shakllanishi, ularning ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'siri, shuningdek, tarbiyaviy jarayonda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ota-ona, ta'lim muassasalari va jamoat institutlari orqali yosh avlodda milliy madaniyat, urf-odatlar va axloqiy me'yorlarni singdirishning samarali usullari yoritilgan. Shu bilan birga, maqola yoshlar orasida milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ularni zamonaviy jamiyat talablari bilan uyg'unlashtirish va ma'naviy barqaror shaxslar shakllantirish masalalarini muhokama qiladi. Tadqiqot natijalari milliy tarbiya strategiyalarini rivojlantirish va ta'lim tizimida samarali dasturlarni ishlab chiqish uchun amaliy tavsiyalar sifatida foydalanishga imkon beradi.

Kirish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o'tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma'naviy narsa yoki hodisa o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar jamiyat va ma'naviy taraqqiyotning zaruriy mahsulidir. Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari majmuidir¹. Qadriyatlar axloqiy qoida va me'yorlar, g'oyalar va maqsadlardagi baholash mezonini hamda usullarini o'zida aks ettiradi: Ular halollik, poklik, o'zaro yordam va adolatligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi ahloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi. Qadriyat-boshqa bir ta'rifda esa atrof muhitdagi narsalarni, hodisalarni ularning inson va jamiyat uchun ahamiyatga qarab, ijobiy yoki salbiy deb, asosiy yoki ikkinchi darajali deb belgilash natijasida vujudga keladigan tushuncha yoki nuqtai nazarlarda aks etuvchi obyektlardir, deb belgilangan.

Qadriyat—bu tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuvi, kelajak avlodning ijodiy o'sishini rag'batlantirish omilidir.

Yosh avlod tarbiyasi har bir jamiyatning barqarorligi va kelajagi uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, global jarayonlar, madaniy integratsiya va zamonaviy axborot texnologiyalarining tez sur'at bilan rivojlanishi sharoitida yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar — bu bir xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari va madaniy merosini o'zida mujassam etgan ijtimoiy-me'naviy tamoyillardir. Ular yoshlar ongini shakllantirish, ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va ma'naviy barqaror shaxslar sifatida yetishtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda milliy qadriyatlar tarbiyaning markaziy komponenti sifatida yosh avlodda axloqiy-ijtimoiy me'yorlarni singdirish, milliy madaniyatni qadrlash va milliy o'zlikni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari, oilaviy tarbiya va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarda milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ularni zamonaviy hayot talablariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi milliy qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasiga integratsiyalash orqali ma'naviy va madaniy barqarorlikni

ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. Maqola milliy qadriyatlarining pedagogik ahamiyatini tahlil qilish, ularni tarbiyaviy jarayonda samarali qo'llash strategiyalarini aniqlash va yoshlar ongida milliy o'zlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot bo'yicha Pedagogika fani sohasida M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Q.Qurbonboyev, J.Toshmatova, Sh.Olimov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiqdir. Ular o'z ilmiy izlanishlarida yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish bo'yicha qator yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo'ygan. Bu borada O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarining o'rni va ahamiyatini tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy yondashuvlarning uyg'unligi asosiy metodologik prinsip sifatida qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik sohasidagi ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Bu manbalarni o'rganish orqali milliy qadriyatlarining shakllanishi, ularning tarbiyaviy jarayonga ta'siri va yoshlar ongida ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash mexanizmlari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda kontekstual yondashuv qo'llanilib, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarining hududiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari hisobga olindi. Bu yondashuv yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirish va ularning madaniy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot natijalari sifatli va miqdoriy ma'lumotlarni integratsiyalash orqali shakllantirildi, bu esa milliy qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasiga samarali integratsiyalash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida markaziy rol o'ynaydi. Shaxslar ongida milliy o'zlikni shakllantirish, axloqiy va madaniy me'yorlarni singdirish, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida milliy qadriyatlarining ahamiyati yuqori ekanligi aniqlangan.

¹ Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2. — B. 32.

Yoshlar orasida milliy qadriyatlarni qadrlash darajasi ularning oilaviy tarbiyasi, ta'lim muassasalari faoliyati va jamoat institutlarining ta'siri bilan bog'liq. Pedagogik jarayonda milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirilgan holda qo'llash yoshlarning ma'naviy barqarorligi va madaniy ongini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonda zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirish zaruratini ko'rsatdi. Bu esa yoshlar orasida milliy madaniyatni qadrlash va ijtimoiy moslashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida milliy qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasiga integratsiyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni ta'lim dasturlariga samarali kiritish imkoniyati mavjudligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, oilaviy, ta'limiy va jamoat institutlarida milliy qadriyatlar bilan bog'liq faoliyatlarni rivojlantirish yoshlar ongida milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zahirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashtirish hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir². Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofimiz, an'analarimiz va o'zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni –millat sifatida birlashtiradi³. Zero, o'z qadriyatlarini va qadrlari bilan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Muhokama. Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta'limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchidan, millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borish ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi⁴. Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarning qudratli manbai va azaliy urf-odatlarimizdan biri-oila va qarindoshlik munosabatlar odobidir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Uchinchidan, "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, g'iyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda." 1998-yil 2-fevralda Respublika xotin-qizlar qo'mitasi xuzurida "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi oilaga taalluqli milliy an'analarni, umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida katta qadam qo'yildi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni ijtimoilashtirish, uni har tomonlama shakllantirish, kamolga etkazish, rivojlantirish eng muhim vazifa sifatida insonni tarbiyalash, unga ta'lim berish, yuksak qadratli, dunyoqarashi keng qamrovli chuqur, bilimdon hamda sog'lom yosh avlodni tarbiyalash ayniqsa, dolzarbdir.

Inson-eng oliy qadriyat, Shu bois, millatimizga xos bo'lgan qadriyatlardan yana biri-bolajonlik, Oilada ko'p farzandlarni dunyoga keltirish va ularni kamolga etkazish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida "Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar" 4-deyiladi⁵. Shunisi quvonarli-ki, biror-bir xorijiy davlatning Konstitutsiyasida bu kabi modda uchramaydi.

Aytish lozimki, bizning Konstitutsiyamiz nafaqat demokratik tamoyillar, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhi bilan sug'orilgan. Oila qanchalik qudratga ega bo'lmasin, u farzand tarbiyasida qo'ni-qo'shnilaridan iborat bo'lgan mahalla va tarbiya maskanlarining ko'magisiz yuqori natijalarga erisha olishi mushkul. Milliy qadriyatlarimizning asosiy xazinaboni - oila deb oladigan bo'lsak, bu xazinani asl san'at asari darajasiga ko'taruvchi naqqoshlar mahalla va maktabdir. Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi beqiyosdir. "Mahalla-ham ota, ham ona" degan hikmatli naql haqiqat, bejiz aytilmagan⁷. Chunki, mahalla haqida gapirganda, ko'pchilik ana shunday chuqur ma'noli so'zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy.

Biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti ichki dunyosidagi mustahkam o'rin olgan, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan an'analarimizni, ota-bobolarimiz bizga qoldirgan olijanob qadriyatlarni, g'ururimizni ko'taradigan, xalqimizni obro'siga obro' qo'shadigan insoniy odat va fazilatlarini saqlash, asrab-avaylash va eng katta boylik sifatida yangi kelajak avlodlarga etkazish zarur.

Xulosa va takliflar. Bugun yurtimizda qadriyatlarimizni qadrlaydigan, ezgu an'analarga o'z hayotiy mo'ljali muhim omil sifatida munosabatda bo'ladigan yoshlar ko'p. Lekin hayoti va istiqbolida milliy qadriyatlarning o'rnini biroz to'g'ri tushunmaydigan yoki o'zini undan xoli holda ko'rib milliy madaniyatimizga e'tiborsizroq bo'lgan yoshlarimiz borligini ham hozircha inkor etolmaymiz.

Barchamiz guvohimiz-bugun dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini gallashga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Ijtimoiy hayotni jamiyat tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlarsiz tasavvur qilish mushkul, ularsiz yashab bo'lmaydi.

Tadqiqotimizning natijalaridan kelib chiqqan holda yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash borasida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. "Shaxs erkinligi" ga qarshi oila va jamiyat oldidagi yuksak ma'suliyatni shakllantirish;

2. Jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san'atkor, huquqshunos, ta'lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog'liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish.

Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar markaziy o'rin tutadi va ularning shakllanishi shaxsning ma'naviy, axloqiy va madaniy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar yoshlar ongida milliy o'zlikni rivojlantirish, jamiyatning ijtimoiy me'yorlariga moslashuvchan shaxslar shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga integratsiyalash jarayonida ota-ona tarbiyasi, ta'lim muassasalari va jamoat institutlarining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirish va pedagogik jarayonda uyg'un qo'llash yoshlar orasida madaniy ongni rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash imkonini beradi.

² A. Allayarov, G. Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. – B. 64.

³ Maxmudov, Y. F., & Xudoyqulov, X. J. (2011). Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezonlari. T. Dizayn-Press 2011. – B. 34.

⁴ Xudoyqulov X.J., Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – b. 28.

⁵ Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. – T.: "Ma'naviyat", 2003. – b. 32

⁶ Abdullayeva, G. A. (2020). THE IMPORTANCE OF MORAL NEEDS IN THE UPBRINGING OF THE INDIVIDUAL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 463-469.

⁷ Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. – Andijon. 2003. 260 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
2. A.Allayarov, G., „Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.
3. Maxmudov, Y. F., & Xudoyqulov, X. J. (2011). Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezon. T, Dizayn-Press 2011.327 b.
4. Xudoyqulov X.J. Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. - 308 b.
5. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma'naviyat”, 2003.
6. Abdullayeva, G. A. (2020). THE IMPORTANCE OF MORAL NEEDS IN THE UPBRINGING OF THE INDIVIDUAL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 463-469.
7. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.